MURAKKAB TO'QIMA XOSIL QILISHDA QO'SHBURAMLI PISHITILGAN IPLARNING FIZIK-MEXANIK XOSSALARINING O'ZGARISHI

Mamarasulov Bobur Baxtiyor o'g'li
Jizzax Politexnika instituti magistri.
Botir Ro'zmatov
Jizzax Politexnika instituti katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada «INDORAMA» va «UZTEX» qo'shma korxonalaridan olib kelingan 20x6 qo'shburamli turli buramlar soniga ega bo'lgan pishitilgan iplarning fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pishitilgan ip, qo'shburamli ip, iplarning fizik-mexanik xossalari, iplarning mustaxkamligi.

O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin [1].

Respublikamiz ishlab chiqarish saloxiyatini, iqtisodini ko'taradigan, dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan xaridorgir yengil sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yengil sanoatni fan va texnika taraqqiyotiga asoslanib eng muhim, eng dolzarb sohaga aylantirish bugungi kundagi ustivor vazifalardan hisoblanadi.

Yigirish korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini nazorat qilib borish ishlari saqlash, sotish, ishlatilish va iste'mol qilinish davrida kuzatib boriladi.

Yigirish korxonalarida ishlab chiqarilayotgan har bir turdagi iplar davlat standartlari yoki texnikaviy shartlar talablariga javob berishi lozim. Ipning sifati fizik-mexanik xossalari, ya'ni sifat ko'rsatkichi bo'yicha baholanadi. Ipning asosiy ko'rsatkichlaridan biri uning chiziqiy zichligi, mustahkamligi, uzilishdagi uzayishi va ko'rsatkichlar bo'yicha kvadratik notekisliklaridir [2].

Ip olish jarayonida yigiruv korxonalarida ishlatiladigan tolalarning, iplarning chiziqiy zichligi, metrik nomeri keng miqyosda o'zgaruvchan bo'ladi. Tabiiy tolalarning yo'g'onligi va ingichkaligi tabiatdan shakllangan bo'lsada, kimyoviy tolalarning yo'g'onligini esa ishlatish maqsadiga nisbatan rejalashtirib olinadi. Shuning uchun ham, yigirish jarayonida to'qimachilik iplarining chiziqiy zichligi belgilangan standart talablariga keltiriladi.

Undan tashqari, ingichka iplardan nafis, yengil gazlamalar, trikotaj matolari ishlab chiqariladi. Tola kancha ingichka bo'lsa, bir xil yo'g'onlikdagi ipning ko'ndalang kesimida shuncha ko'p tola bo'ladi. Natijada, ipning tuzilishida tolalarning o'zaro bir-biriga tegib turgan yuzasi ortadi va ishqalanish kuchi ortadi, ip mustahkamligi kichik bo'lib, bu ko'rsatkich ingichka iplar uchun sezilarli darajada bo'ladi [3].

Shu sababli, qo’shburamli pishitilgan iplarning fizik-mexanik xossalarini aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi va olingan sinov natijalari 1-4-rasmlarda keltirildi.



Buramlar soni, br/m

1-rasm. Turli korxonalarda ishlab chiqarilgan qo‘shburamli pishitilgan iplarning mustahkamligining o‘zgarishi.

1-INDORAMA korxonasi;

2-UZTEX korxonasi.



Buramlar soni, br/m

2-rasm. Turli korxonalarda ishlab chiqarilgan qo‘shburamli pishitilgan iplarning solishtirma uzilish kuchining o‘zgarishi.

1-INDORAMA korxonasi;

2-UZTEX korxonasi.



3-rasm. Turli korxonalarda ishlab chiqarilgan qo‘shburamli pishitilgan iplarning mustahkamligi bo‘yicha kvadratik notekisligining o‘zgarishi.

1-INDORAMA korxonasi;

2-UZTEX korxonasi.



4-rasm. Turli korxonalarda ishlab chiqarilgan qo‘shburamli pishitilgan iplarning uzilishdagi uzayishining o‘zgarishi.

1-INDORAMA korxonasi;

2-UZTEX korxonasi.

Tadqiqot natijalarini tahlil etadigan bo‘lsak, INDORAMA qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilgan 250 br/m buramlar berilgan pishitilgan iplarning ko‘rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, 300 br/m buramlar berilgan pishitilgan iplarning mustahkamligi 3,7% ga, solishtirma uzilish kuchi 3,3% ga, mustahkamligi bo‘yicha kvadratik notekisligi 50,0% ga, uzilishdagi uzayishi 15,0% ga, uzilishdagi uzayishi bo‘yicha kvadratik notekisligi 20,7% ga oshdi, 350 br/m buramlar berilgan pishitilgan iplarning mustahkamligi 6,1% ga, solishtirma uzilish kuchi 3,4% ga, mustahkamligi bo‘yicha kvadratik notekisligi 33,3% ga, uzilishdagi uzayishi 26,5% ga oshdi, uzilishdagi uzayishi bo‘yicha kvadratik notekisligi 2,2% ga kamaydi, UZTEX qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilgan 250 br/m buramlar berilgan pishitilgan iplarning ko‘rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, 300 br/m buramlar berilgan pishitilgan iplarning mustahkamligi 6,1% ga,

solishtirma uzilish kuchi 5,4% ga oshdi, mustahkamligi bo‘yicha kvadratik notekisligi 18,4% ga kamaydi, uzilishdagi uzayishi 12,5% ga, uzilishdagi uzayishi bo‘yicha kvadratik notekisligi 10,5% ga oshdi, 350 br/m buramlar berilgan pishitilgan iplarning mustahkamligi 9,3% ga, solishtirma uzilish kuchi 7,8% ga oshdi, mustahkamligi bo‘yicha kvadratik notekisligi 23,7% ga kamaydi, uzilishdagi uzayishi 17,6% ga oshdi, uzilishdagi uzayishi bo‘yicha kvadratik notekisligi 5,0% ga oshdi.

Xulosa

INDORAMA qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilgan 250 br/m buramlar berilgan pishitilgan iplarning ko‘rsatkichlariga nisbatan buramlar soni ortishi bilan pishitilgan iplarning mustahkamligi 3,7% dan 6,1% gacha, solishtirma uzilish kuchi 3,3% dan 3,4% gacha, mustahkamligi bo‘yicha kvadratik notekisligi 33,3% dan 50,0% gacha, uzilishdagi uzayishi 15,0% dan 26,5% gacha, uzilishdagi uzayishi bo‘yicha kvadratik notekisligi 2,2% dan 20,7% gacha oshganligi, UZTEX qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilgan 250 br/m buramlar berilgan pishitilgan iplarning ko‘rsatkichlariga nisbatan buramlar soni ortishi bilan pishitilgan iplarning mustahkamligi 6,1% dan 9,3% gacha, solishtirma uzilish kuchi 5,4% dan 7,8% gacha oshganligi, mustahkamligi bo‘yicha kvadratik notekisligi 18,4% dan 23,7% gacha kamayganligi, uzilishdagi uzayishi 12,5% dan 17,6% gacha oshganligi, uzilishdagi uzayishi bo‘yicha kvadratik notekisligi 5,0% dan 10,5% gacha oshganligi aniqlandi**.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 yanvardagi 53-sonli “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori .

2. Jumaniyozov Q.J., G‘ofurov Q.G‘., Matismailov S.L., Pirmatov A., Xoliyorov M.Sh., Fayzullaev Sh.R. To‘qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari. «G‘ofur G‘ulom», Toshkent, 2012.

3. Jumaniyozov Q.J., Polvonov Y.M. Paxta yigirish texnologik jarayonlarini loyihalash. TTESI, 2007.